

TA'LIM VA TARBIYA JARAYONLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Gulbahor Yuldasheva

FarDU, Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi

Oxunjonova Zuhraxon Asrorjon qizi

FarDU, milliy g'oya yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Respublikamizda ta'lif jarayonini tashkil etishda yangi innovatsiyalar, axborot texnologiyalarini va ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashning maqsadi, mazmuni va mohiyati, ta'lif sifatidagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, innovatsion texnologiyalar, ta'lif sifati, Internet.

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini aniq yo'naltirilgan ongli ta'siri orqali shakllantiradi. Milliy g'oya shakllantirishning dastlabki omillari oilaviy munosabatlardan iborat. Ochiq axborot makonida shaxsni o'ziga jalb etadigan eng muhim tashqi omil axborotning tanish kimsalar tomonidan berilish hisoblanadi. Axborot madaniyatining mohiyati, asosan taxnika-axborot vositalaridan oqilona foydalanish hamda muayyan qadriyatlarni o'zlashtirish aks etishi e'tirof etiladi. Tarbiya texnologiyasi deganda biz tarbiyaning ma'lum maqsadlariga erishishga qaratilgan maxsus pedagogik uslublar tizimini tushunamiz. Har qanday tarbiya metodikasi, tarbiya texnologiyalaridan tashkil topadi. Masalan, jamoani rejalahtirish, o'smirlar bilan aloqa o'rnatish, pedagogik diagonostika texnologiyasi va boshqalar. 1997-yilda "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonun milliy matbuotimiz rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Ommaviy axborot vositalari xodimlarining istiqlol g'oyalari, vatanparvarlik, ma'naviy va tarbiyaviy ishlarini targ'ib qilishdagi, xizmatlari, roli va mavqeyini oshirish maqsadida 27-iyun "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni"¹ deb e'lon qilindi. Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Axborot inson uchun eng ta'sirchan ijtimoiy vosita hisoblanadi. Hozirgi kunda ta'lif jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv

¹ "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'RQ 78-soni. 15.01.2007

jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarini egallahsga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, sharoit yaratadi hamda shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ularning rivojlanishiga xizmat qilyapti, chunki texnologiya yordamida axborot olish imkoniyati tobora kengaymoqda. Ayni paytda turli mamlakatlarning tarixiy-madaniy xususiyatlari va rivojlanishidagi o'ziga xosliklarini saqlab qolish maqsadida axborot xavfsizligini ta'minlashning ahamiyati ortib bormoqda. Bugungi kunda ta'lim sohasida ham kompyuter texnologiyalari keng kirib keldi va bu ta'lim tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishda, hamda har tamonlama intellektual salohiyatini oshirishda muhim o'rinn tutadi. Bugungi kunda hayotni axborot vositalarisiz, jumladan, internetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'zbekistonning mustaqilligi sharoitlarida ta'lim tizimini isloh qilish birinchi navbatda ta'lim va tarbiya tizimiga ilg'or axborot texnologiyalarning tatbiq etish bilan bog'liq. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o'ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan ular deyarli insoniyat faoliyatি barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish jarayonidagi to'siqlarni yengib o'tish imkon berishi haqida ma'lumot berilgan. Chet tillarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or usullarini joriy etish orqali yosh avlodga chet tillarini o'rgatish, ushbu tillarni mukammal biladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimi zamonaviy uslub, texnologiya va uslublarni tubdan takomillashtirish va shu asosda ularning jahon sivilizatsiyasidagi yutuqlari va jahon axborot resurslaridan kengroq foydalanishi uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish maqsadida chet tillarini o'qitish, yaratish, va ta'lim jarayoniga joriy etish masalalari olib borilmoqda. Axborot-tarbiyaviy faoliyat. Ta'lim muammosini globalizatsiyalashtirish seminarlari o'tkazishdan tortib terrorizm va diniy ekstremizm mohiyatini ochib berishgacha-elektron tarmoqlar axborot-tarbiyaviy imkoniyatlarini ahamiyatini oshiradi. Yangi axborot texnologiyalari fan va ta'limni to'plangan bilimlarni yetkazish, ularni to'ldirish va qayta baholash kabi yanada yaqin va samarali kanallari bilan bog'lashga imkon beradi. Ta'lim sifatini, ma'naviy-g'oyaviy tarbiyasi darajasini oshirish vazifasi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga

oshirish so‘zsiz yangi axborot texnologiyalariga asoslanishi zarur. Ta’lim tizimini rag‘batlantirmay turib, fuqarolik jamiyatini qurib bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.“Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. O‘RQ 78-soni. 15.01.2007
2. I.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.” T.: O‘zbekiston. 2016
3. Yuldasheva, G. I. (2022). Ta’lim samaradorligini oshirishda elektron darsliklardan foydalanish. *Youth, Science, Education: Topical Issues, Achievements And Innovations*,(5), 36-38.
4. Yoldasheva, G. I., & Yuldasheva, M. M. (2021). Factors of informatization of the process of primary education. *Экономика и социум*, (12-1 (91)), 689-692.
5. Yuldasheva, G. (2022). D. Begmatova Zamonaviy ta’lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish. *International Academic Research Journal*, 57-61.
6. Yuldasheva, G., & Yo‘ldosheva, M.(2023). Yangi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(6).
7. Алдашев, И. (2020). Современные информационные технологии в образовании-это новые возможности. *Экономика и социум*, (6 (73)), 341-344.
8. Шерматова, X. M., & Мукимова, З. З. (2021). Интеллектуальная культура- важный фактор образовательного процесса. *Экономика и социум*, (4-2 (83)), 723-726.
9. Yuldasheva, G., & Yo‘ldosheva, M. (2023). ZAMONAVIY INFORMATIKANI O‘QITISH: MAQSAD, MAZMUN, USULLAR. *Академические исследования в современной науке*, 2(14), 146-149.
10. Yuldasheva, G., & Yo‘ldosheva, M. (2023). Texnologik rivojlanishda sun’iy intellektning ahamiyati. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(9), 138-141.
11. Mamirovich, I. S. (2022). Finlyandiya Va O ‘Zbekistonda Ta ‘Lim Tizimini Sifatini Solishtirma Taxlili. *Miasto Przyszlosci*, 29, 347-350.